

EPIDEMIOLOGIYA FANNINI O'QITISHGA RAQAMLASHTIRISHNING AHAMIYATI

**Ilm fan taraqqiyotida raqamli iqtisodiyot va
zamonaviy ta'limning o'rni hamda rivojlanish omillari**



Matnazarova G.S.,

Xudoyqulov J.B.,

Xamzaeva N.T.

Toshkent tibbiyat akademiyasi, Toshkent, O'zbekiston

Epidemiologiya fani tibbiyot ta'limining ajralmas qismi bo'lib, aholining salomatligini yaxshilash, kasalliklarni oldini olish va sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirishda muhim rol o'yndaydi. Ushbu fanni raqamlashtirish orqali o'qitish, zamonaviy talablarga mos holda ta'lim jarayonini takomillashtirish imkonini beradi.

Raqamlashtirishning asosiy afzalliklari:

Ilmiy va amaliy ma'lumotlardan keng foydalanish: Raqamli texnologiyalar epidemiologik ma'lumotlarni tahlil qilishni osonlashtiradi. Talabalar real vaqt rejimida xalqaro va milliy ma'lumotlar bazalaridan foydalanib, kasalliklarning tarqalishi va tendensiyalarini o'rGANISH imkoniyatiga ega bo'ladilar.

O'quv jarayonini interaktivlashtirish: Virtual laboratoriylar, simulyatsiyalar va geoinformatsion tizimlar (GIS) yordamida talabalarga nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lash imkoniyati yaratiladi. Bu usullar ta'limni samaraliroq va qiziqarli qiladi.

Masofaviy ta'lim imkoniyatlari: Onlayn platformalar yordamida masofaviy kurslarni tashkil qilish, professor-o'qituvchi va talabalarning internet tarmoqlaridagi kanal va guruhlarda fikr almashishi, epidemiologiya fanini ma'lumotlar bazasini tez va yaxlit qabul qilishi, bir qator saytlardagi epidemiologik vazitat haqidagi vedioroliklar orqali geografik cheklovlarini yengish va ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish mumkin. Bu ayniqsa uzoq hududlarda istiqomat qiluvchi talabalar uchun juda muhimdir.

Amaliy natijalar:

Epidemiologiya fani bo'yicha bilim olishda samaradorlikni oshirish.

Kasalliklarni prognoz qilish va profilaktika choralarini amalga oshirishda talabalarning amaliy ko'nikmalarini shakllantirish.

Talabalarni global sog'liqni saqlash muammolarini hal qilishga tayyorlash.

Raqamlashtirish talabalarni zamonaviy epidemiologik tadqiqotlar uchun zarur bo'lgan dasturlar bilan ishlashga o'rgatadi (SPSS, R, Python va boshqalar). Bu ularning ilmiy izlanishlarga tayyorligini oshirib, kasbiy rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Xulosa: Epidemiologiya fani ta'lim jarayonini raqamlashtirish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali ta'lim sifatini oshiradi. Bu nafaqat talabalarning kasbiy tayyorgarligini kuchaytiradi, balki sog'liqni saqlash tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois, epidemiologiya fani ta'limida raqamlashtirishni keng joriy etish strategik ahamiyatga ega bo'lib, uning rivoji uchun zamonaviy infratuzilma yaratish muhimdir.

Matnazarova G.S. +998973432309 gulbaxor.matnazarova@tma.uz

Xudoyqulov J.B. +998909933224 jonibekxudoyqulov@mail.ru

Hamzaeva N.T. +998903984422 Nilufarkhamzaeva4@gmail.com